



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 6 (8)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 6-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

6

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Karabayev R.Z. Raqamli iqtisodiyot: nazariy asoslari va O‘zbekistonda rivojlanish yo‘nalishlari.....	8
Ubaydullayeva N.A. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda kichik biznes korxonalarining rivojlanish strategiyalari: nazariy yondashuvlar.....	11
Xatamov A.A. Raqamli transformatsiya asosida ixtisoslashtirilgan savdo majmualarida moliyaviy resurslarni boshqarishni takomillashtirish.....	15
Yokubjonova X.Yo. Co-marketing strategiyasining ekoturizmni brendlashiga integratsiyasi: metodologik yondashuv va amaliy natijalar.....	19
Yusupova M.B., Jamoliddinova (Usmonova) S.S. Ustama xarajatlarni tasniflash va uning mahsulot tannarxini shakllantirishdagi ahamiyati.....	24
Abdug‘ofurova O.M., Yusupova M.B. Ishlab chiqarish korxonalarida tannarxni kalkulyatsiya qilish va uni takomillashtirish yo‘llari.....	27
Xojiboyev M.Sh. Xorijiy tajribalarni O‘zbekiston nodavlat oliy ta’lim muassasalari boshqaruv hisobi tizimiga moslashtirish: nazariy asoslar va amaliy istiqbollari.....	31
Исраилова Д.К. Глобализация в условиях демографического кризиса: икономические риски.....	38
Qurbonova X.I. Bozor iqtisodiyotida davlatning makroiqtisodiy muvozanatni ta’minlash va inqirozga qarshi siyosati.....	43
Asqarov A.H. Oliy o‘quv yurti talabalarida moliyaviy savodxonlikni aniqlash me’zonlari (noiqtisodiy yo‘nalishi talabalarini misolida).....	47
Yunusova S.A., Turg‘unboyev A.A. Eko-mehmonxona tushunchasi, turlari va asosiy xususiyatlari.....	51
Barnayev Z.Sh. Xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalari raqobatbardoshligining mazmun-mohiyati va xususiyatlari.....	55
Bobokulov A.A. Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarining hududiy iqtisodiy integratsiyaga ta’siri.....	59
Рахимжонов Б.Б., Рахимжонов Б.Б. Инновационные процессы как фактор развития промышленных предприятий.....	63
Matmusayev M.O. Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari.....	67
Raxmatjonova G.E. Ishlab chiqarish korxonalarining asosiy vositalari buxgalteriya hisobini xalqaro andozalar talablari bo‘yicha takomillashtirish.....	72
Kamoldinova N.A. Ayollar tadbirkorligi faoliyatida raqamli integratsiya darajasini baholash.....	76
Xaitova M.K. Raqamli platformalar orqali biznes modellarini yangilash va kompaniyalar strategik imkoniyatlarini kengaytirish.....	81
Yo‘ldashev M., Sotvoldiyev U. Davlat byudjetini taqchilligi va uni kamaytirish mexanizmlari.....	85
Maribjonov B.I., Arabboyev J.S. Tuman mahalliy byudjetidan moliyalashtiriladigan maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlarining 4-guruh xarajatlarining tahlili.....	88
Ro‘ziyev Sh.Sh. Hududiy iqtisodiy rivojlanishda mahalliy ishlab chiqarishni boshqarishning zamonaviy usullari.....	92
Nematov G‘.G‘., Sotvoldiyev U.K. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tishning iqtisodiy asoslari va istiqbollari: dekappling indeksi tahlili.....	95
Karimov D.M., Mustafayeva H. Xorij tajribasi asosida O‘zbekistonda pensiya tizimini takomillashtirish....	99
Ermatova S.I. Sanoat korxonalarida majburiyatlar tarkibi va moliyaviy barqarorlikning empirik tahlili (Andijon viloyati to‘qimachilik korxonalari misolida).....	104
Ermatov M.S. Sun’iy intellekt va mehnat bozorida raqamli inqilob: tahdidmi yoki kelajak imkoniyatimi?....	107
Azizova H.A. Raqamli transformatsiya sharoitida sanoat korxonalarining investitsion-innovatsion faoliyatini takomillashtirish yo‘llari.....	111
Юсупов А.С., Джангабаева Г.П. Международный рынок акций: содержание, виды и особенности..	114
Xusanova Z.R. Andijon viloyatida ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi va uning xususiyatlari.....	119
Abdulazizov A.A. Energetika tarmog‘i korxonalarida ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishning nazariy asoslari.....	122
Norov A.E., Fazliddinov Sh.Sh., Erkinov X.X. Liderlik va motivatsiya o‘rtasidagi munosabatga ta’sir etuvchi omillar.....	126
Атаханова Ш.С., Мирхамидова Д.Н. Цифровая трансформация как инструмент достижения ESG-целей в нефтегазовой сфере Республики Узбекистан.....	131
Toxirov J.R. Mijozlarga yo‘naltirilgan raqamli marketing asosida savdo xizmatlarini modernizatsiya qilish.	136

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 6-son 2026 yil

Sulaymonova F., Ro‘zimov B. Online ta’lim xizmatlari bozorining kengayishi natijasida an’anaviy ta’lim sektorida yuz berayotgan iqtisodiy o‘zgarishlar.....	140
Zayaviddinova N.M. Hududda xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyatini boshqarish strategiyasini takomillashtirish.....	143
Odilova M.A. Kimyo sanoatidagi korxonalar faoliyatida resurslardan samarali foydalanish.....	147
Axmedova D.N. Mintaqaviy raqamli tayyorlik indeksining hududiy iqtisodiy o‘‘sishga ta’siri.....	151
Sapayeva N.K. O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatida yashil transformatsiya va B2B raqamli marketing asosida barqaror rivojlanish modeli.....	155
Allayarov S. Startup financing mechanisms: a comparative analysis of angel investment, venture capital, bank lending, and state grants.....	158
Махмудов О.Х. Moliya tizimining boshqa iqtisodiy tizimlar bilan aloqadorligi.....	162
Ibragimova M.M. “Yashil iqtisodiyot” va “Yashil tadbirkorlik” tushunchalarining iqtisodiy mazmuni va evolyusion transformatsiyasi.....	167
Olimjonov A. Korxona faoliyatining samaradorligini oshirishda moliyaviy barqarorlik va rentabellik ko‘rsatkichlari o‘‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish.....	171
Rakhimboeva B.D. Analysis of the economic situation of the development of export activities of small businesses in Uzbekistan.....	174
Raxmatova F.Y. To‘qimachilik korxonalarida aylanma iqtisodiyot modelini joriy etishning iqtisodiy mexanizmlari.....	178
Ergasheva A.F. Milliy hunarmandchilik mahsulotlarini brendlash va bozorda pozitsiyalashning strategik yondashuvlari.....	181
Navruzova G.U. Theoretical models and institutional mechanisms, forms and structures of cooperation between education and manufacture.....	184
Djumayeva S.K. Yashil investitsiya muhitini shakllantirishda raqamli iqtisodiyotning makroiqtisodiy ta’siri (O‘zbekiston hududlari misolida).....	188
Pardayev TN., Muqimov A.R. Boymirzayev K.M. Jismoniy shaxslar tomonidan olib kiriladigan tovarlardan bojxona to‘lovlarini undirishni takomillashtirish.....	193
Ибодуллоева З.С. Экономические стимулы внедрения водосберегающих технологий в аграрном секторе Узбекистана.....	199
Ibragimova G.S. Ta’lim sifatini yaxshilashda innovatsion yondashuvlar va raqamli vositalar.....	203
Raxmatova S.S. Turizmni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning o‘ziga xos xususiyatlari.....	207
Umarova M.M. Foreign brand spillovers and export performance of smes in emerging economies: a panel data analysis.....	212
Karimova F.A. Ekoturizmni barqaror rivojlantirishning xorijiy tajribasi va ularni O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari.....	217
Raxmanov B.I. Investitsiya siyosatini amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish.....	221
Ashurova G.N. Charm-poyabzal sanoati korxonalarida sifatni boshqarish tizimini takomillashtirish yo‘llari.....	225
Axmadjanov I.I. Shaharlar va shahar aglomeratsiyalari mintaqalar va mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining drayveri.....	228
Эгамназарова Г.Ш. Рақамли тенгсизлик: давлатлар ва тармоқлар ўртасидаги технологик узилишларни камайтириш йўллари.....	232
Mamanazarov M.A. Iqtisodiy o‘‘sishni rag‘batlantirishda milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning xorij tajribasi.....	236
Химматов А.Х. Йўл корхоналарини хусусийлаштиришнинг афзалликлари ва оқибатлари.....	241
Kambaraliyeva I.S. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat bozorining transformatsiyasi va raqamli ko‘nikmalarning ahamiyati.....	244
Muxiddinov T.Sh. Jizzax viloyatida turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	248
Sayxdodjayeva N.I. Ijtimoiy va ekologik audit: barqaror rivojlanishni ta‘minlashda zamonaviy nazorat mexanizmi.....	253
Fayzullayev J.N. Milliy iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	257
Tursunova N.X. «Xayot sug‘urtasining iqtisodiy mohiyati va uning aholi moliyaviy xavfsizligini ta‘minlashdagi roli».....	261
Abdishukurova G.M., Bozorboyev A.R. Sug‘urta kompaniyasi balansini “Risk tetraedri” modeli asosida baholash.....	266
Abdurasulova M.O. Zamonaviy iqtisodiyot nazariyasi asoschilari.....	270

Vaxidov A. Buxgalteriya hisobining tarkibiy tuzilishi - moliyaviy va boshqaruv hisobi.....	273
Turg‘unova T., Muftaydinov Q. Iqtisodiy zonalarda ekologik tadbirkorlikni investitsion va innovatsion qo‘llab-quvvatlashning xorijiy tajribalari.....	277
Kurbanov F.U. Raqamli iqtisodiyotning moliyaviy xizmatlar bozoriga ta’siri.....	283
Umarov T.S. Qurilish sanoati korxonalari iqtisodiy barqarorligini statistik baholashning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish.....	287
Rahimova N.A. Kichik biznes subyektlarida inson resurslarini boshqarish tizimidagi muammolari va ularni bartaraf etishda zamonaviy yondashuvlar.....	291
Yangiboyev U.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy menejment tizimini takomillashtirishning nazariy-uslubiy asoslari va amaliy yo‘nalishlari.....	295
Махкамова Н.С. Роль зеленых облигации в финансировании проектов устойчивого развития.....	299
To‘xtarova F.Y. Analysis of tourism insurance practices and their economic efficiency.....	304
Anvarov Sh.D. O‘zbekiston qimmatli qog‘ozlar bozorida investitsion muhitni rivojlantirishning institutsional va infratuzilmaviy omillari.....	308
Xalmirzayev O.A. Ko‘p obyektli savdolarida Vickrey-Clark-Groves mexanizmining samaradorligi tahlili....	313
Zaidov I.I. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozorida raqobat munosabatlarini boshqarish mexanizmlari.....	318
Rahimova N.A. Inson kapitalini boshqarishning tashkilot raqobatbardoshligiga ta’siri.....	321
Gulimboyev S.I., Rejapov X.X. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ta’lim kreditlarining iqtisodiy ahamiyati....	324
Bardiyev S.U. Mintaqada raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy samaradorligini baholash: Xorazm viloyati misolida.....	328
Qulmatova S.S. Mahalla tizimida oziq-ovqat ta’minoti zanjirini IoT va sun’iy intellekt texnologiyalari asosida intellektual boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.....	332
Aminov S.S. Mintaqada qurilish sohasidagi innovatsion rivojlanishga ta’sir etuvchi omillar.....	336
Дадабоева М.М. Кичик бизнесинг иқтисодийёт тармоқлари бўйича ривожланиш тенденциялари.....	340
Numonjonova N.A. Kichik biznesni rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish	344
Абдулазизов А.А. Гидроэнергетика саноати ва унда ресурс тежаш жараёнларининг хорижий тажрибалари.....	348
Muradov O.U. Sanoat korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirish bo‘yicha xorijiy tajribalar va ulardan foydalanish imkoniyatlari.....	352
Saidova M.J. Xorijiy mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish tajribasi va uni O‘zbekistonda qo‘llash yo‘nalishlari.....	356
Umirova G.Sh. Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida rentabellik ko‘rsatkichlari asosida iqtisodiy samaradorlikni baholash metodikasini takomillashtirish.....	360
Narmanov U.A., Nazarov J.B., Tursunaxmadov X.Sh. Moliyaviy risklarning iqtisodiy ahamiyati va uni boshqarishning zarurligi: risk tushunchasi va uning turlari.....	365
Nosirov S.N. Barqaror moliyalashtirish global bozorlari: zamonaviy tendensiyalar va rivojlanish muammolari.....	369
Farmanov J.Z., Sanetullaev A.E. Modeling of economic basis and forecast indicators of innovation transformation processes in agricultural entrepreneurship.....	373
Mirzataev S.M. Integration of digital and smart technologies in increasing the ecological resilience of the agricultural system.....	376
Kidirniyazov A.Sh. Development of artificial intelligence-based service monitoring systems for construction quality control.....	379
Абдуллаева Ш.Э. Халқаро индекслар асосида ижтимоий ҳимоя тизимини молиялаштириш.....	382
Mirjalolova M.M. Sun’iy intellekt texnologiyalarining O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik samaradorligini oshirishdagi o‘rni.....	389
Baytanov O‘.M. Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning tarmoq xususiyatlari.....	394
Умаров А.Т. Особенности развития социальной сферы в Узбекистане.....	400

- 5) Катуков Д.Д., Малыгин В.Е., Смородинская Н.В. Институциональная среда глобализированной экономики: развитие сетевых взаимодействий. / Научный доклад под ред. Н.В. Смородинской. М., Институт экономики РАН, 2012. - 45 с.
- 6) Клавдиенко В.П. Инновационная система Швейцарии: факторы успеха // Инновации 2018. №4 (234). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/innovatsionnaya-sistema-shveytsarii-factory-uspeha>.
- 7) Клавдиенко В.П. Национальная инновационная система Китая: становление и развитие // Инновации. 2016. №4 (210). С. 97-103.
- 8) Колотырина Е.А. Особенности становления инновационной системы Республики Корея // Вестник РУДН. Серия: Экономика. 2015. №2. ст. 96-105.
- 9) Коюда А.П. Типология моделей инновационного развития экономики // БИЗНЕСИНФОРМ № 4 '2011. С. 23-26.
- 10) Назарова С.В. Особенности Евроатлантической модели национальной инновационной системы // Экономика и бизнес: теория и практика. 2023. №3-1 (97). С. 101-105.
- 11) Перчинская Н. Инновационные модели развитых и развивающихся стран и возможность их адаптации к условиям Республики Молдова. INCE. 2018. — URL: https://ince.md/uploads/files/1524725892_modelle-inovationale.pdf.
- 12) Сергеев В.М., Алексеенкова Е.С., Нечаев В.Д. Типология моделей инновационного развития // Полития. 2008. No. 4. С.6-22.

UDK: 330.59

**XAYOT SUG‘URTASINING IQTISODIY MOHIYATI VA UNING AHOLI MOLIVAVIY
XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDAGI ROLI**

**ЭКОНОМИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ СТРАХОВАНИЯ ЖИЗНИ И ЕГО РОЛ В
ОБЕСПЕЧЕНИИ ФИНАНСОВОЙ БЕЗОПАСНОСТИ НАСЕЛЕНИЯ**

**THE ECONOMIC ESSENCE OF LIFE INSURANCE AND ITS ROLE IN ENSURING THE
FINANCIAL SECURITY OF THE POPULATION**

Tursunova Nafisa Xalil qizi

O‘zbekiston Milliy universiteti Iqtisodiyot fakulteti

“Ekonometrika va iqtisodiy modellashtirish” kafedrası o‘qituvchisi

ORCID: 0009-0000-1375-5574

Annotatsiya

Ushbu maqolada hayot sug‘urtasining iqtisodiy mohiyati hamda uning aholi moliyaviy xavfsizligini ta’minlashdagi roli nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Hayot sug‘urtasi aholi daromadlarini kutilmagan moliyaviy risklardan himoya qilish, uzoq muddatli jamg‘armalarni shakllantirish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashning muhim moliyaviy instrumenti sifatida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot jarayonida hayot sug‘urtasining moliyaviy xavfsizlik tizimidagi o‘rni, uning ijtimoiy himoya mexanizmlari bilan o‘zaro bog‘liqligi hamda iqtisodiy barqarorlikka ta’siri yoritilgan. Shuningdek, O‘zbekiston sharoitida hayot sug‘urtasi bozorini rivojlantirishning dolzarb masalalari va istiqbollari yuzasidan ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: hayot sug‘urtasi, moliyaviy xavfsizlik, sug‘urta riski, ijtimoiy himoya, sug‘urta fondi, daromadlarni himoyalash.

В статье рассматривается экономическая сущность страхования жизни и его рол в обеспечении финансовой безопасности населения. Страхование жизни анализируется как важный финансовый инструмент защиты доходов населения от непредвиденных рисков,

формирования долгосрочных сбережений и обеспечения социальной стабильности. В ходе исследования раскрывается место страхования жизни в системе финансовой безопасности, его взаимосвязь с механизмами социальной защиты и влияние на экономическую устойчивость. Кроме того, представлены научные выводы и практические рекомендации по развитию рынка страхования жизни в условиях Республики Узбекистан.

Ключевые слова: перестрахование, диверсификация рисков, страховые компании, финансовая устойчивость, страховой рынок, собственное удержание (ретенцион), доля седента, сессия, тантема.

This article examines the economic essence of life insurance and its role in ensuring the financial security of the population. Life insurance is analyzed as an important financial instrument for protecting household incomes from unforeseen financial risks, forming long-term savings, and ensuring social stability. The study highlights the role of life insurance within the financial security system, its relationship with social protection mechanisms, and its impact on economic sustainability. In addition, scientific conclusions and practical recommendations are proposed for the development of the life insurance market in the context of Uzbekistan.

Keywords: life insurance, financial security, insurance risk, social protection, insurance fund, income protection.

Bugungi globallashuv va iqtisodiy beqarorlik sharoitida aholining moliyaviy xavfsizligini ta'minlash masalasi davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Aholi daromadlarining barqarorligi, kutilmagan moliyaviy yo'qotishlardan himoyalaniishi hamda uzoq muddatli ijtimoiy kafolatlarning shakllanishida hayot sug'urtasi muhim moliyaviy institut sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, demografik o'zgarishlar, aholining umr ko'rish davomiyligining ortishi va mehnat bozoridagi risklarning kuchayishi hayot sug'urtasining iqtisodiy ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Xalqaro amaliyot shuni ko'rsatadiki, hayot sug'urtasi jahon sug'urta bozorining eng yirik segmentlaridan biri hisoblanadi. Swiss Re Sigma hisobotlariga ko'ra, 2023-yilda jahon bo'yicha yig'ilgan umumiy sug'urta mukofotlarining qariyb 40 foizi hayot sug'urtasi hissasiga to'g'ri kelgan. Rivojlangan mamlakatlarda hayot sug'urtasi mukofotlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi o'rtacha 5–8 foizni tashkil etib, ushbu ko'rsatkich aholining moliyaviy xavfsizligini ta'minlash darajasi bilan bevosita bog'liq ekani kuzatiladi. Xususan, Yaponiya va Buyuk Britaniyada hayot sug'urtasi pensiya ta'minoti va ijtimoiy himoya tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida shakllangan.

O'zbekiston Respublikasida ham sug'urta bozorini, xususan hayot sug'urtasi sohasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. So'nggi yillarda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar natijasida hayot sug'urtasi kompaniyalari soni ortib, ushbu segmentda yig'ilayotgan sug'urta mukofotlari hajmi yil sayin barqaror o'sib bormoqda. Vakolatli davlat organlari ma'lumotlariga ko'ra, 2022–2024-yillar davomida O'zbekistonda hayot sug'urtasi bo'yicha sug'urta mukofotlari o'sish sur'ati yiliga o'rtacha 20–30 foizni tashkil etgan. Shu bilan birga, hayot sug'urtasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi hanuzgacha past darajada qolib, ushbu sohaning iqtisodiy salohiyati to'liq ishga solinmaganini ko'rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, hayot sug'urtasining iqtisodiy mohiyatini chuqur ilmiy tahlil qilish, uning aholi moliyaviy xavfsizligini ta'minlashdagi rolini asoslab berish hamda milliy iqtisodiyot sharoitida ushbu institutni rivojlantirish yo'llarini aniqlash dolzarb ilmiy masala hisoblanadi. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi hayot sug'urtasining iqtisodiy mazmunini ochib berish, uning moliyaviy xavfsizlik tizimidagi o'rnini baholash hamda O'zbekiston sharoitida hayot sug'urtasini rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosa va takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Hayot sug'urtasining iqtisodiy mohiyati va uning aholi moliyaviy xavfsizligini ta'minlashdagi roli masalalari sug'urta nazariyasiga oid fundamental asarlarda keng yoritilgan. Ushbu maqolada mavzuga bevosita aloqador bo'lgan, qonuniy elektron manbalarda mavjud uchta asosiy ilmiy-adabiy manba tanlab olinib, ularning mazmuni va ilmiy yondashuvlari tahlil qilindi.

Birinchi asosiy manba sifatida E.J.Vaughan va T.Vaughan muallifligidagi “Fundamentals of Risk and Insurance” nomli asar alohida e’tiborga loyiq. Mazkur kitob sug’urta nazariyasining klassik manbalaridan biri bo‘lib, unda hayot sug’urtasi risklarni qayta taqsimlash va moliyaviy barqarorlikni ta’minlash vositasi sifatida talqin etiladi. Mualliflar hayot sug’urtasining iqtisodiy mohiyatini kutilmagan hodisalar natijasida yuzaga keladigan daromad yo‘qotishlarini qoplash mexanizmi orqali ochib beradilar. Kitobda hayot sug’urtasining jamg‘arish funksiyasi, uzoq muddatli moliyaviy rejalashtirishdagi o‘rni hamda uning pensiya ta’minoti bilan uzviy bog‘liqligi ilmiy asosda yoritilgan. Ushbu asarning muhim jihati shundaki, unda hayot sug’urtasi moliyaviy xavfsizlik tizimining tarkibiy elementi sifatida ko‘rib chiqiladi[1].

Melek Aliyeva tomonidan chop etilgan “Assessment of the Role of Life Insurance in Strengthening the Social Protection of the Population in the Republic of Azerbaijan” Ushbu maqolada hayot sug’urtasining aholini ijtimoiy himoya qilishdagi roli ilmiy asosda tahlil qilingan. Muallif maqolada hayot sug’urtasining nafaqat moliyaviy risklardan sug’urta vositasi, balki ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash vositasi sifatida ahamiyatini o‘rganadi. Tahlil davomida muallif korrelyatsion va regressiya metodlaridan foydalangan holda hayot sug’urtasi penetratsiya darajasi oshishi ijtimoiy va iqtisodiy holat yaxshilanishiga olib kelishini ko‘rsatadi. Hayot sug’urtasi ijtimoiy himoya tizimidagi o‘rni statistik usullar bilan baholaydi va sug’urta penetratsiyasining ijtimoiy barqarorlikka ta’siri haqida empirik dalillar keltiradi[2].

Lim Thien Sang va boshqalar ushbu maqola moliyaviy savodxonlik va hayot sug’urtasiga oid oilaviy tushuncha (Takaful) bo‘yicha empirik tadqiqot natijalarini taqdim etadi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, yuqori moliyaviy bilim darajasi hayot sug’urtasi bo‘yicha qaror qabul qilishni yaxshilaydi, natijada sug’urtaga bo‘lgan talab oshadi. Hayot sug’urtasining talabiga moliyaviy bilim darajasining ta’siri tahlil qilinadi. Sug’urta xizmatlariga bo‘lgan ishonch va ijtimoiy omillarni baholaydi [3].

Mazkur uchta manbaning tahlili shuni ko‘rsatadiki, xorijiy adabiyotlarda hayot sug’urtasi asosan moliyaviy xavfsizlik va risklarni boshqarish nuqtai nazaridan yoritilgan bo‘lsa, milliy adabiyotlarda ushbu masala O‘zbekiston iqtisodiy sharoiti, aholining daromad darajasi va sug’urta madaniyati bilan bog‘liq holda talqin etilgan. Shu bois, mazkur maqolada hayot sug’urtasining iqtisodiy mohiyati va uning aholi moliyaviy xavfsizligini ta’minlashdagi roliga kompleks va tizimli yondashuvni qo‘llash zarurligi asoslab berildi.

Ushbu tadqiqot hayot sug’urtasining iqtisodiy mohiyati va uning aholi moliyaviy xavfsizligini ta’minlashdagi rolini o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqot metodologiyasi tizimli, empirik va qiyosiy tahlil usullarini o‘z ichiga oladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi hayot sug’urtasi xizmatlarining iqtisodiy samaradorligini, aholining moliyaviy xavfsizligiga ta’sirini va O‘zbekiston sharoitidagi rivojlanish imkoniyatlarini baholashdir.

1. Nazariy va konseptual bosqich: Birinchi bosqichda hayot sug’urtasi bo‘yicha mavjud nazariy bilimlar va ilmiy tadqiqotlar o‘rganildi. Shu jumladan:

- Sug’urta va hayot sug’urtasining nazariy asoslari: risklarni boshqarish, moliyaviy xavfsizlik va sug’urta xizmatlarining ijtimoiy- iqtisodiy roli;
- Xorijiy ilmiy manbalar: Vaughan & Vaughan, Aliyeva, Lim Thien Sang va boshqalar tadqiqotlari tahlil qilindi;
- Milliy manbalar: O‘zbekiston sug’urta kompaniyalarining yillik hisobotlari, Markaziy Bank va Sug’urta Agentligi statistik ma’lumotlari.

Nazariy tahlil hayot sug’urtasining iqtisodiy va ijtimoiy funksiyalarini aniqlashga imkon berdi hamda tadqiqot uchun konseptual asos yaratdi.

2. Empirik va statistik bosqich: Ikkinchi bosqichda hayot sug’urtasi bozorining amaliy holati va aholi moliyaviy xavfsizligidagi roli empirik ma’lumotlar asosida tahlil qilindi.

Ma’lumotlar manbalari:

- Milliy: Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari, sug’urta kompaniyalarining yillik hisobotlari;
 - Xalqaro: Swiss Re Institute (2023), World Bank statistik ma’lumotlari.
- Tahlil qilinadigan ko‘rsatkichlar:

- Hayot sug‘urtasi polislari soni va ularning o‘shish sur‘ati;
- Sug‘urta mukofotlari (paremiyalar) hajmi;
- Aholining sug‘urta bilan qamrov foizi (penetration rate);
- Sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlari;
- Sug‘urta xizmatlarining yo‘qotish darajasi (loss ratio).

Empirik tahlil orqali hayot sug‘urtasining iqtisodiy samaradorligi va aholining moliyaviy xavfsizligiga ta’siri aniqlanadi. Masalan, O‘zbekiston hayot sug‘urtasi bozori 2019–2024 yillarda yillik o‘rtacha 15–22% o‘shish ko‘rsatgan bu xizmatlarning iqtisodiy ahamiyatini tasdiqlaydi.

3. Integratsiyalashgan va xulosa bosqichi: Uchinchi bosqichda nazariy va empirik natijalar birlashtirilib, hayot sug‘urtasining iqtisodiy va ijtimoiy roli tizimli tarzda tahlil qilindi.

- Milliy va xorijiy tajribalar solishtirildi;
- Hayot sug‘urtasi xizmatlarining ijtimoiy va moliyaviy ahamiyati aniqlandi;
- Tadqiqot natijalari asosida aholining moliyaviy xavfsizligini oshirish va hayot sug‘urtasini rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Mazkur tadqiqot davomida tahlil qilingan statistik ma’lumotlar O‘zbekiston sug‘urta bozori va hayot sug‘urtasi segmentining o‘shish dinamikasi, xizmatlarga bo‘lgan talab darajasi hamda aholi moliyaviy xavfsizligiga ta’siri haqida aniq tasavvur beradi.

Hayot sug‘urtasi bozorining o‘shish tendensiyasi.

O‘zbekiston sug‘urta bozori 2025 yilning birinchi yarmida sezilarli o‘shishni ko‘rsatdi. Xususan, yanvari–iyun 2025 yillarda sug‘urta kompaniyalari tomonidan jami 6,23 trln so‘m miqdorida paremiyalar yig‘ildi, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 46% o‘shishni anglatadi. Shuningdek, hayot sug‘urtasi segmenti bo‘yicha paremiyalar 384,22 mlrd so‘mga yetdi va o‘tgan yilga nisbatan 385,6%ga oshdi (ya’ni qariyb 4 barobar ko‘paydimi) — bu eng yuqori o‘shish ko‘rsatkichlaridan biri bo‘ldi. Bu holat hayot sug‘urtasi xizmatlariga bo‘lgan talabning ortganini ko‘rsatadi.

Statistika ma’lumotlariga ko‘ra, hayot sug‘urtasining umumiy sug‘urta bozoridagi ulushi ham o‘smoqda. Masalan, ma’lum bir manbaga ko‘ra, 2025 yilda hayot sug‘urtasi bozorining taxminan 6,16% ni tashkil etgan, bu esa unga bo‘lgan talabning yuqoriligini tasdiqlaydi.

O‘zbekistonda hayot sug‘urtasining bozor ichidagi o‘rni.

Jami sug‘urta xizmatlaridagi tendensiyalar o‘zgaruvchan bo‘lib, aksariyat paremiyalar umumiy sug‘urta segmentida chiqadi. Masalan:

- Umumiy sug‘urta segmenti sug‘urta bozorining taxminan 94% ni tashkil etadi.
- Hayot sug‘urtasi esa 384,22 mlrd so‘m bilan o‘sha bozorning kichik, ammo tez o‘sovchi qismi hisoblanadi.

Bundan ko‘rinib turibdiki, hayot sug‘urtasi hali ham umumiy sug‘urta bozorida nisbatan kam ulushga ega bo‘lsa-da, uning o‘shish sur‘ati boshqa sug‘urta turlaridan sezilarli darajada yuqori.

Hayot sug‘urtasining o‘shish sur‘ati va moliyaviy ahamiyati

O‘zbekistonda hayot sug‘urtasi bo‘yicha premium yig‘ilishi bir necha yillar davomida salmoqli o‘shishni ko‘rsatmoqda. Masalan, 2024 yilda hayot sug‘urtasi kompaniyalari umumiy 167,15 mlrd so‘m sug‘urta mukofoti yig‘gan bo‘lib, bu ko‘rsatkich avvalgi yilga nisbatan ayrim hollarda kamaygan edi, ammo 2025 yilda yuqori o‘shish kuzatildi. Bu o‘zgarishlar sug‘urta xizmatlarining aholi va biznes uchun iqtisodiy ahamiyati oshib borayotganidan darak beradi. Hayot sug‘urtasi paremiyalarining kattalashishi aholi tomonidan moliyaviy xavfsizlikni ta’minlashga bo‘lgan ehtiyojning oshganini ko‘rsatadi.

Sug‘urta xizmatlaridagi tarkibiy o‘zgarishlar: Ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekiston sug‘urta bozorida hayot sug‘urtasi xizmatlarining ulushi bozorning kichik qismi bo‘lib qolmoqda; masalan, 2025 yilning statistik ma’lumotlarida hayot sug‘urtasi xizmatlari bozorining taxminan 5,1–6,4% tashkil etgan.

Bu ko‘rsatkichlar sug‘urta xizmatlarida hayot sug‘urtasining hali ham nisbatan kichik sektor ekanini, ammo uning o‘shish sur‘ati tez ekanini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, hayot sug‘urtasi xizmatlariga bo‘lgan talab boshqa sug‘urta turlariga nisbatan past bo‘lgani holda, keyingi yillarda bu segmentning salmog‘i oshishi ehtimoli yuqori.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki:

1. O‘zbekiston sug‘urta bozori har yili salmoqli o‘shishni ko‘rsatmoqda, va hayot sug‘urtasi segmenti ham ushbu o‘shishdan chetda qolmaydi. 2025 yilda hayot sug‘urtasi paremiyalari qariyb 4 barobarga ko‘payganligi — aholining moliyaviy xavfsizlik ehtiyoji oshganini ko‘rsatadi.

2. Hayot sug‘urtasi bozordagi ulushi boshqa sug‘urta turlariga nisbatan kichik, ammo uning o‘shish sur‘ati yuqori bo‘lishi bu sohaning kelajakdagi imkoniyatlarini ko‘rsatadi.

3. Hayot sug‘urtasi xizmatlarining bozordagi o‘shish tendensiyasi aholining moliyaviy xavfsizligi va sug‘urta madaniyati yuqori darajada rivojlanayotganini anglatadi, bu esa iqtisodiy va ijtimoiy omillar bilan bog‘liq.

4. Mazkur tahlil milliy va xalqaro statistika bilan uyg‘un, shu bilan tadqiqot gipotezasi — hayot sug‘urtasi xizmatlari aholi moliyaviy xavfsizligini ta‘minlashda muhim rol o‘ynashi — ilmiy jihatdan tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda hayot sug‘urtasi bozori so‘nggi yillarda sezilarli o‘shishni ko‘rsatmoqda. 2025 yilda hayot sug‘urtasi paremiyalari qariyb to‘rt barobarga ko‘payganligi aholining moliyaviy xavfsizlikka bo‘lgan ehtiyoji ortganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, hayot sug‘urtasi bozordagi ulushi umumiy sug‘urta segmentida kichik bo‘lsa-da, uning o‘shish sur‘ati va iqtisodiy ahamiyati kelajakda bu segmentning muhim ijtimoiy va moliyaviy rolini namoyon etadi. Hayot sug‘urtasi aholining kutilmagan moliyaviy yo‘qotishlardan himoyalaniishi, ijtimoiy barqarorlik va kapital shakllanishiga salmoqli ta‘sir ko‘rsatadi.

Tadqiqotga asosanib quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Davlat siyosati va qonunchilikni takomillashtirish - hayot sug‘urtasi polislari uchun imtiyozlar va subsidiyalar taqdim etish, paremiyalarni arzonlashtirish orqali aholi uchun qoliplashtirilgan moliyaviy xavfsizlikni ta‘minlash.

2. Moliyaviy savodxonlikni oshirish — aholi orasida hayot sug‘urtasi, risklarni boshqarish va moliyaviy rejalashtirish bo‘yicha targ‘ibot va ta‘lim dasturlarini kengaytirish.

3. Raqamli sug‘urta xizmatlarini rivojlantirish — onlayn platformalar va mobil ilovalar orqali sug‘urta polislari xaridini soddalashtirish va xizmatlarga erkin kirishni ta‘minlash.

4. Sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini oshirish — kapital yetarlilik darajasini mustahkamlash va risk diversifikatsiya mexanizmlarini kengaytirish orqali bozor barqarorligini ta‘minlash.

5. Ijtimoiy himoya tizimi bilan integratsiya - hayot sug‘urtasi polislari orqali aholi pansion va nogironlik kabi ijtimoiy xavflardan himoyalaniishi, shu bilan moliyaviy xavfsizlikni va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash.

Shu bilan, hayot sug‘urtasi nafaqat iqtisodiy jihatdan aholi moliyaviy xavfsizligini ta‘minlaydi, balki ijtimoiy barqarorlik va kapital shakllanishiga ham salmoqli hissa qo‘shadi. Tavsiyalarning amalga oshirilishi O‘zbekiston sug‘urta bozori rivojlanishi va aholining moliyaviy xavfsizligini mustahkamlashda muhim omil bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Андреева, Э.В. Страхование: курс лекций. Иркутск: Изд-во БГУ, 2015. – 263 с.
2. Aliyeva, M. Assessment of the Role of Life Insurance in Strengthening the Social Protection of the Population in the Republic of Azerbaijan. Research in International Business and Finance, 2023
3. Vaughan, E.J., Vaughan, T. Fundamentals of Risk and Insurance. 12th Edition. Wiley, 2020.
4. Guillaume, Gorge. Insurance Risk Management and Reinsurance, 1st Edition. Routledge, 2020.
5. Hojamuratova, G.Yu. Risklarni boshqarish. Darslik. Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2021. – 214 b.
6. Разумовская, Э.А., Фоменко, В.В. Страховое дело: учебное пособие. Екатеринбург: Гуманитар университет, 2016. – 249 с.
7. Тарасова, Ю.А. Страхование: Учебник и практикум для прикладного бакалавриата. Москва: Изд-во Юрайт, 2018. – 236 с.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. “Mamlakatimizda qayta sug‘urta tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-191-son, 23.05.2025.

9. www.napp.uz – National Agency for Project Monitoring (NAPP). Insurance sector statistical report, 2025. Toshkent: NAPP, 2025.
10. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi
11. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy sayti
12. <https://www.uzdaily> - Uzbekistan’s National Reinsurance Company receives license to operate in reinsurance sector.
13. <https://ahbor-reyting.uz/ru/sample-page/>- Sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi va ratinglari.

UDK: 336.76

**SUG‘URTA KOMPANIYASI BALANSINI “RISK TETRAEDRI” MODEL ASOSIDA
BAHOLASH**

**ОЦЕНКА БАЛАНСОВЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ СТРАХОВОЙ КОМПАНИИ НА БАЗЕ
МОДЕЛИ “ТЕТРАЭДР РИСКА”**

**ASSESSING THE BALANCE SHEET OF AN INSURANCE COMPANY BASED ON THE
“RISK TETRAHEDRON” MODEL**

Abdishukurova Go‘zal Maqsud qizi

O‘zbekiston Milliy universiteti Matematika fakulteti katta o‘qituvchisi

Bozorboyev Avazbek Raximjon o‘g‘li

O‘zbekiston Milliy universiteti Matematika fakulteti talabasi

Annotatsiya

Mazkur ilmiy maqola sug‘urta kompaniyasining balansini to‘rt o‘lchovli “Risk Tetraedri” modeli asosida kompleks baholash masalalariga bag‘ishlangan. Tadqiqotda O‘zbekiston sug‘urta bozorining zamonaviy rivojlanish tendensiyalari, aktivlar va passivlar tarkibidagi nomutanosibliklar hamda qisqa muddatli majburiyatlarni uzoq muddatli aktivlar hisobidan qoplash muammolari tahlil qilingan. “Risk Tetraedri” modeli doirasida balans ko‘rsatkichlariga ta’sir etuvchi to‘rtta asosiy xavf — kredit, bozor, likvidlik va operatsion risklar o‘zaro bog‘liqlikda hamda integral yondashuv asosida tadqiq etilgan. Shuningdek, maqolada milliy sug‘urta kompaniyalari balansini Solvency II xalqaro standartlariga muvofiq risk-orientirlashgan usulda baholash bosqichlari taklif etilgan bo‘lib, sohada moliyaviy barqarorlikni oshirish, kapital yetarliligini ta’minlash va risk monitoringi tizimini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Sug‘urta kompaniyasi, balans, Risk Tetraedri modeli, kredit riski, bozor riski, likvidlik riski, operatsion risk, Solvency II, moliyaviy barqarorlik, kapital yetarliligi, risk-orientirlashgan yondashuv.

Данная научная статья посвящена вопросам комплексной оценки баланса страховой компании на основе четырехмерной модели «Тетраэдр рисков». В исследовании проанализированы современные тенденции развития страхового рынка Узбекистана, структурные дисбалансы в активах и пассивах, а также проблемы покрытия краткосрочных обязательств долгосрочными активами. В рамках модели «Тетраэдр рисков» во взаимосвязи и на основе интегрального подхода изучены четыре основных вида рисков, влияющих на балансовые показатели: кредитный, рыночный, ликвидный и операционный. Кроме того, в статье предложены этапы оценки баланса национальных страховых компаний риск-ориентированным методом в соответствии с международными стандартами Solvency II, а также разработаны научно-практические рекомендации по повышению финансовой